
O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga kiritilgan o'zgarishlar

Mamlakatimizda pensionerlarni ijtimoiy ko'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, qariyalar va keksa yoshdagilarga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy ximoya siyosati doirasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida pensiya tizimini takomillashtirishga, pensiya miqdorini muntazam ravishda oshirib borishda alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida pensiya tizimini takomillashtirishga, pensiyalar miqdorini muntazam oshirib borishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 19 sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish kiritish haqidagi O'RQ-791-sonli qonunida fuqarolarning ovoragarchiligini bartaraf etish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, shuningdek qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadida fuqaroning 2005-yil 1-yanvardan avvalgi davr uchun ish staji shaxsning mehnat daftarchasidagi mavjud yozuvlar asosida, hech qanday tasdiqlovchi hujjatlar talab etilmasdan belgilanishi, pensiya va nafaqalar fuqaroning xohishiga ko'ra ro'yxatga olingan doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha tayinlanishi va to'lanishi, uch yil va undan avval tayinlangan, qayta hisoblangan pensiyalarning tekshirilishiga yo'l qo'yilmasligi hamda ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta'tilida bo'lish vaqtidagi qo'shib hisoblanadigan ish staji davri ikki barobarga, ya'ni uch yildan olti yilga oshirilganligi pensiya tizimi islohotidagi muhim qadamlar bo'ldi. Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiq izchil oshirib borilishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu Qonunda yoshga doir, nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining eng ko'p miqdorini pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirish nazarda tutilmoqda. Yangi tartibga asosan, pensiya tayinlashda hisobga olingan o'rtacha oylik ish haqi miqdori 3 mln 240 ming so'mdan yuqori bo'lgan pensionerlarning pensiyalari qayta hisob-kitov qilib chiqiladi. Ushbu qayta hisob-kitov qilingan pensionerlarning pensiyalari 2023 yil 1 yanvardan boshlab to'lab beriladi.

M.Topvoldiev, Pensiya jamg'armasi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i o'rinbosari.

2022-12-19 15:47:16